

## ZAMONAVIY JANGLAR TAHLILI VA "XUSUSIY HARBIYLASHTIRILGAN TASHKILOTLARNING" TAKTIK HARAKATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8333245>

**Isamatov Ravshan Sunnatovich**

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti  
Fakultet (malaka oshirish) katta o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Hozirgi zamonaviy janglarda "xususiy harbiylashtirilgan tashkilot" larning noqonuniy vazifalar bajarish bilan siyosiy vaziyatlarni muvafaqqiyatli bajarishi va maqsadga erishishda ularning roli katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada Afg'oniston, Sirya, va Ukraina hududlarida qurolli to'qnashuvlarida "xususiy harbiylashtirilgan tashkilotlarning" jangovar harakatlarni olib borishining taktik harakat usullari ko'rsatib o'tilgan.

### **Kalit so'zlar**

*xususiy harbiylashtirilgan tashkilot, uchuvchisiz uchuvchi apparati, jang, qurolli mojaro, artilleriya.*

### **Аннотация**

"Военная частная компания" в современном бою с тактическими действиями с выполнением незаконной задачи, с достижении целонаправленным действиям и успешного выполнения задачи с этими они играют большую роль. В данной статье, показны выводы, способы и действия военной частной компании на территории государств Афганистана, Сирии и в Украине.

### **Ключевые слова**

*частней, дрон, беспилотней летательный аппарат, бой, вооруженный конфликт,.*

### **Annotation**

*In modern battles, the tactical actions of private paramilitary organizations are of great importance in performing illegal tasks and successfully completing political situations and achieving goals. In this article, armed conflicts in Afghanistan, Syria and Ukraine are shown as examples of the methods of private paramilitary armed organizations in conducting hostilities.*

### **Key words**

*private paramilitary organization, drone, battle, armed conflict, artillery.*

Iqtisodiyotning eng katta daromadlardan biri bu - quroq savdosi ekanligi bizga ma'lum, biroq hozirgi elektrotexnikalar davri qurolozlik sanoatida ham shiddat bilan o'zgarib borishi, inson kuchini robotlashtirish ASU (intellekt) boshqaruv texnikalarini yaratilishi va qurollarni takomillashtirish talab etmoqda. Bu esa uchinchi kuchlarga, shaxsiy tarkibni jalb qilmasdan, uzoq masofadan boshqaruvni amalga oshirishi va yashirin (maxfiy) likni ta'minlagan holda o'z manfaati yo'lida qurolli ziddiyatlarni keltirib chiqarishmoqda. Davlatlar o'zlarining suvereniteti, qonun ustivorligini, qonunchiligini va hukumat boshqaruvini ta'minlaydigan omillarni saqlash va o'zga kuchlar ta'siridan saqlanish maqsadida qurolli mojarolarni hal etmoqda, chunki siyosatning oxirgi ko'rinishi bu - urush. Bunga misol tariqasida Afg'oniston islam davlatidagi qurolli mojarolarning 1979-yildan, 1988-yildan buyon Tog'li Qorabog' mojarosi va hozirda Ukraina davlatini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan qurolli mojarolar kichik qurolli to'qnashuvlardan boshlanib, xozirgi kunlarga kelib qo'llanilayotgan qurol-yarog' va zamonaviy texnik vositalarning ko'lamiga muvofiq yirik masshtabli janglarga aylandi biroq jang suratini kengayishi, quollarning yirik kalibrleriga aylanishi hamda ularning ta'sir omillarini kegayishi inson hayotiga ham tasiri ko'rsatmoqda.

Afg'oniston islam davlati tog'li hududligi sababli qo'shinlarni texnikalarda, jang oldi va jangovar tartibda harakatlarni olib borishda qiyinchiliklar tug'dirganligi bizlarga sir emas. Demak ularning hududlarida harakatlanish jangovar vazifalarni bajarishda o'zgacha taktika qo'llash kerakligi chunki Afg'aniston ko'p vaqt jangovar harakatlarni o'tkazib kelganligi, hududlarni yaxshi bilishligi va xududlarda yer osti tunellar, yashirin yo'llar barpo qilib olganligi (1-2-rasmlar) ustuvorlikni ta'minlagan. Bu orqali manyovrlar qilish va pistirmalar uyushtirishda qo'shinlarga qo'qisdan zARBalar berib ularga to'sqinlik qilib kelgan.

Harbiy xizmatga majburlarni ularga nisbatan ko'nikma va tajribalari kamligi sababli kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarni majburiy xizmatga jalb qilishda ularga moliyaviy qo'llab quvatlash bilan xususiy harbiy tashkilotlarga asos solinib keligan.



*1-rasm*

*2-rasm*

Shuningdek butun dunyo tinchlikni saqlash tashkilotlarini cheklovlar ularning harakatlariga to'sqinlik qilishlari sababli "xususiy harbiy tashkilotlarni" shakinllantirish bilan o'zlarini maqsadlariga erishishda Tolibonlar harakatiga omillar yaratish bilan haligacha qurolli mojoralarni olib borilishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Dunyo iqsodiyotida Rossiya imperiyasi gigimon davlatlar tarkibidan o'zining qurolli hukmrolligi bo'yicha eng yerik harbiy blokka egaligi va Osiyo davlatlaridan NATO harbiy blogiga azo bo'lishiga qarshilik ko'rsatishi unga qarshi fitnalar olib borish maqsadida Kaspiy dengiz atrofidagi davlatlardan Armaniston va Azarboyjon davlatlaridagi ziddiyatlar shunig dek Ukraina o'rtasidagi qurolli nizolarni yaratish bilan amalga oshirib kelmoqdadir.

Ozarbayjon va Armaniston Qurolli Kuchlarining taktik harakatlarida bir qancha omillar shuni ko'rsatdiki ikkala davlatni uchinchi kuch tomonidan qo'llab quvatlanishi ularning zamonaviy qurol - aslahalar bilan ta'minlanishi Armaniston davlatining havo kuchlari va armiya aviatsiyasi tomonidan zayifliyligi hisoblangan.

UUА va artilleriya razvedka stansiyalaridan foydalanish natijasida artilleriyadagi taktik harakatlarni tezkorligi va aniqligini oshiribgina qolmay, kontrbatareya usulida qarshi kurash ta'siri ostida o'zgartirib yubordi. Hozirgi vaqtga kelib quruqlikdagi qo'shinlarning o't ochish vositalari bilan nishonlarni yakson qilish uchun juda kam vaqt va qurol ajratildi, shundan so'ng ular "Qarshi olovli manevr" ni [1,2] amalga oshirdilar, ya'ni, juda qisqa muddat ichida o't ochish vazifasini bajarish joyini tark etib, dushmani aniqlab ularga zarba berish natijalarini ko'rib chiqishdi.

Uchuvchisiz uchuvchi apparati tunu-kun ob havoning har qanday sharoitlarida dushman joylashgan joyda razvedka vazifalarini bajarishga qodir bo'lgan. Dushman nishonlarini aniqlash va real vaqt sharoitlarida artilleriya olovlarini korrektirovka qilish; har bir qurolning jangovar imkoniyatlarini oshirish; murakkab maxsus vazifalarni bajarish; har bir nishon bo'yicha snaryad sarfini kamaytirish kabilalar Rossiya qo'shinlarida UUAlarni keng qo'llashga olib kelgan.

Hatto oddiy dron yoki kvadrakopter ham kamida 20-30 daqiqa davomida bir necha kilometr masofaga havoda uchib yurishga qodir, bu esa butun batareyaning emas, balki alohida qurol yoki minomyotning ham jangovar qobiliyatini bir necha barobarga oshirish imkonini beradi.

Uchuvchisiz uchuvchi apparatidan keng miqiyosda foydalanishi natijasida o't ochish vazifalarini miqdori 3-4 marta, vaqt bo'yicha vazifa bajarish tezlashtirilishi, dushmanning alohida ob'ektlari shikastlanishi, ta'sir kuchining 15-20% ga oshirilishi, razvedka vazifasining 35-40 % ga oshishiga olib keldi (3-rasm)

Mavjud ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumotlarga ko'ra talofatlarning 80-85 % artilleriya zimmasiga to'g'ri kelmoqda. Artilleriyaning roli va o'rni oshganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan davlatlardagi qurolli to'qnashuvlarda jangovar harakatlarini qo'llash tajribalarini ko'rib chiqishimiz. Asosiy harakatlar uzoq masofadan amalga oshirilishi artilleriya qo'shinlari qo'llanilganligi, qarama qarshi tomon havo orqali artilleriya qo'mondonlik punktlarini uchuvchisiz uchar apparat (UUА) (Bayrakdar TB-2)lardan samarali foydalanib ularning boshqaruv punktlarini safdan chiqarishi natijasida ustunlikga erishdi.

Uchuvchisiz uchar apparat (UUА) gan keng foydalanish natijasida artilleriyani jangovar qo'llashning cheklanganligi, artilleriyani qo'shnarning maxsus harakatlarida qo'llashning usul va shakllarini [1,2] o'zgartirib yubordi.

Rossiya va Ukraina o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlarning taxliliga ko'ra Rossiya qo'shinlari jangning dastlabki kunlarida stvolli artilleriyadan keng foydalanishdi, lekin Ukraina qo'shinlari muhandislik jihatdan mustahkam o'rnashganligi sababli stvolli artilleriya o'z samarasini bermadi va natijada Rossiya qo'shinlari manfaatida "Tochka U" zenit raketa tizimi, katta kalibrli artilleriya va reaktiv tizimlari 220 mm "URAGAN", 300 mm "Smerch" (4-rasm), "Tornado" va "Tornado - S" zalg otuvchi reaktiv tizimi (ZORT), 203 mm 2S7 "Pion" o'ziyurar quro, 240 mm o'ziyurar minomyot 2S4 "Tyulpan"lardan foydalanila boshlandi (5-rasm).

Artilleriya quollaridan keng foydalanib kelishi, muhim toifalangan obektlarini suv omborlarini (GES), kimyoviy zavodlarni ish faoliyatini tugatishlari tinch aholiga xavf xatarni kamaytirish maqsadida tinch aholini evakuatsiya qilish talab qilmoqda.



**3-rasm. Uchuvchisiz uchuv apparati.**



**4-rasm. ZORT, 300 mm “Smerch”.**



**5-rasm. 203 mm 2S7 “Pion”.**

Biroq BMT, inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlarinig vakillari tomonidan va ommaviy vositalar orqali berilayotgan ma'lumotlar betaraf tinch aholini ichimlik suvi, elektir tarmoqlari, madaniy va ma'naviy meroslariga ko'rsatgan zarrarlari oqibatida ularning harakatlarga to'sqinlik qilishi Rossiya davlatiga sanksiyalar elon qilinishi noqonuniy qurolli tashkilotlarni yaratishga yaqqol misol bo'la oladi.

Bunday ziddiyatlarga qarshi butun jahon inson manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlari nafaqat Rossiyaga tasiri balkim barcha gigimon davrlargaga to'sqinlik qilishi noqonuniy qurolli tashkilotlarni va xususiy harbiy tashkilotlarni yaratish bilan o'zlarini muammolarini hal etmoqda.

Ular o'zlarini maqsadli harakatlarini qurolli tajovuzlar orqali amaldor shaxslarga kerak bo'lsa toifalangan obektlarga ta'sir ko'rsatish bilan iltumatsiyalar qo'yish bilan erishmoqda.

Qarama - qarshi tomonlar o'zlarini harakatlarini maxfiy tutish maqsadida tinch axolini qalqon sifatida foydalanib ularning yashash maskanlarini panagox qilishib taktik harakatlarini amalga oshirib kelishi tinch aholining tarixiy obidalarni, ma'naviy meros obidalarni yakson qilishi yoki vayron qilish bilan inson hayotiga havf solmoqda.

Buning yechimida, shahar (aholi yashash punktiga) kvartiraga kiritish shaxsiy tarkibning tallofotlar ko'rishi, yo'qotishlar sababli yirik kalibirli snaryad to'plaridan o't yog'dirishlar bilan hal qilinmoqda.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:**

zamonaviy qurolli tuqnashuvlarda noqonuniy qurollangan tuzulmalarni o'rni va roli sezirarli darajada faoliyatini takomillashtirish kutilmoqda;

o't ochish vazifalarni bajarishda 65-85 % pinhona amalga oshiradi;

xususiy ishlab chiqaruvchi korxonalarni faoliyati kengayib borishi xususiy harbiy tashkilotlarni yanada rivojlanishiga olib keladi;

xususiy tadbirkorlarni davlatga qarshi bo'lishi kelajakda o'zini liderlik faoliyatini takomillashtirishda;

Vagner, jangarilarini qo'llash usul va shakllari takomillashmoqda;

UUА bilan o't ochish samaradorligini oshirishda korrektirovka qilish jarayoni sezilarli darajada oshmoqda;

ommaviy qирғиң (yadro kimyoviy va biologik) qуollarini ishlatish imkoniyatlarini ogshirmoqda;

o'ta aniqlikda uruvchi qуollar va o'q dorilarga talab oshib bormoqda.

Shiddati turlicha kechayotgan bugungi harbiy mojarolar tajribasi, "xususiy harbiylashtirilgan tashkilotlar" ning jangovar harakatlarda egallagan о'rni butkul jang suratini o'zgartirib yubormoqda. Zamonaviy qurolli kurashlarda katta masshtabda qurolli to'qnashuvlarni bo'lmasligi ixtimolini ko'pligi va harakatlarni kichik kuchlar tarafidan kimyomiq qуollar (ommaviy qирғиң qуollarni) strategik axamiyatdagi inshoatlarni qo'lga kiritish bilan tinch aholiga ta'sir ko'rsatish bilan maqsadlariga erishmoqda. Shuning uchun "xususiy harbiy tashkilotlarga" talablar kengayib borar ekan, ularni qo'llayotgan taktik harakatlarini o'rganib borish bilan bo'linma komandirlarining professional tayyorgarlik saviyasiga qo'yilayotgan talablar ham oshib boradi. Bugungi bo'linma komandiri zehn-zakovatli, yuqori malakali ofitser bo'lishi, murakkab (keskin) vaziyatda nostandard qaror qabul qila olishi, bo'ysunuvchi bo'linmani jangda ham, kundalik faoliyat davomida ham mohirona boshqara bilishi shart.

**Yuqorida keltirilgan qurolli majorolardan kelib chiqgan xulosalarga asosan xususiy qуollangan tashkilotlarga qarshi kurashish uchun qo'yidagilar taklif etiladi:**

- tashqi va ichki razvedkalarni kuchaytirish;
- zamonaviy radioelektron kurash vositalari bilan ta'minlash va ularni moxirona boshqara oladiga kadirlar bilan boyitish;
- kibr jinoyatchilik qarshi kuch vositalarini kuchaytirish;
- ommaviy vositalarini negativ habarlarni chiqarishiga yo'l qo'ymaslik;
- kelajak yoshlarini ma'naviy - ruhiy kuchini oshirish;
- shaxsiy tarkibga yangi turdag'i UUA ni qo'llashni o'rgatish;

➤ aholi punktlarida vaqtincha va keldi keti odamlarni doimiy yashash joyi bo'yicha pasport tasarrufida nazorat xizmatlarini joriy qilish.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. [Управление Верховного комиссара ООН по правам человека](https://www.ohchr.org). Kirish rejimi: <https://www.ohchr.org>. Murojaat sanasi - 26.12.2022.
2. [Шойгу назвал потери Украины с начала спецоперации](https://www.rbc.ru/politics). Kirish rejimi: <https://www.rbc.ru/politics>. Murojaat sanasi – 21.09.2022.
3. [US military chief: Over 100,000 Russian soldiers killed or wounded in conflict – and same on Ukrainian side](https://edition.cnn.com). CNN. Kirish rejimi: <https://edition.cnn.com>. Murojaat sanasi – 09.11.2022.
4. [Урсула фон дер Ляйен назвала потери Украины в войне](https://ru.wikipedia.org). Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org>. Murojaat sanasi – 30.11.2022.
5. [Подоляк назвал потери Украины в войне с Россией](https://www.rbc.ua/ukr/news). Kirish rejimi: <https://www.rbc.ua/ukr/news>. Murojaat sanasi – 01.12. 2022.
6. Подоляк. [Потери российских оккупантов в Украине приближаются к 200 000](https://timesnews.io/ru/news) - Kirish rejimi: <https://timesnews.io/ru/news>. Murojaat sanasi – 30.11.2022.
7. [Россия потеряла 25 000 солдат](#). Buyukbritaniya mudofaa vazirligi: Radio «Свобода» Murojaat sanasi – 05.09.2022.
8. [Минобороны России впервые с марта назвало потери в Украине](https://www.bbc.com). Kirish rejimi: <https://www.bbc.com>. Murojaat sanasi – 21.09.2022.
9. [Від початку повномасштабної війни проти України росія втратила уже понад 100 000 осіб, знищено 413 РСЗВ ворога - Генштаб ЗСУ](https://www.mil.gov.ua/news) (укр.). [Міністерство оборони України](#). Kirish rejimi: <https://www.mil.gov.ua/news>. Murojaat sanasi – 22.12. 2022.
10. Потери России в войне с Украиной. Медиазона. Kirish rejimi: <https://zona.media/casualties>. Murojaat sanasi – 30.12. 2022.